

MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TA'LIM MUASSASASI RAXBARINING SIFATLARI

Yusupov Alimjan Turabaevich.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
San'atshunoslik kafedrasи assident o'qituvshisi.

To'rboeva Muqaddas Olimjon qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Kimyo texnologiyalari fakulteti 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10684906>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi o'z oldiga qo'ygan maqsadlar qay darajada o'z natijasini berayotganini, xususan jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyati, ta'lif tarbiya berishdagi muomma va yechimlarin, pedagogik vazifalarin belgilab uni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, modda, konstitutsiyaviy norma, metod, nazariya, dastur.

THE MAIN DIRECTIONS OF THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL THOUGHTS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND QUALITIES OF THE HEAD OF THE EDUCATIONAL INSTITUTION

Abstract. This article examines the extent to which the goals set by the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan achieve their results, in particular, the effectiveness of social reforms in society, the spirituality of its citizens, problems and ways to solve them in the field of education, identifies pedagogical tasks and analyzes them.

Key words: Constitution, article, constitutional norm, method, theory, program.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И КАЧЕСТВА РУКОВОДИТЕЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается, в какой степени цели, поставленные новой редакцией Конституции Республики Узбекистан, достигают своих результатов, в частности, эффективность социальных реформ в обществе, духовность его граждан, проблемы и пути их решения в сфере образования, определяются педагогические задачи и анализируются их.

Ключевые слова: Конституция, статья, конституционная норма, метод, теория, программа.

O'zbekistonda ham ta'lif islohotlarining qadriyatlari yo'naliishlari qaror topib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lif olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir", deb belgilab qo'yilgan. 42-moddasida esa, "har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi; davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi" ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko'rsatib qo'yilgan: "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy

mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha yashaganidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi”.

1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadining o'ziyoq, uning qadriyatli yondashuvga asoslanganligidan darak beradi: “Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir”.

Ta'limiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim SH.Mardonov “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da quyidagi ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlarning mohiyati ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi:

Konstitutsiyamizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, oila qurish, yashash joyiga ega bo'lish hamda o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratilishi huquqiy ifodasini topgan. Jumladan konstitutsiyaning 41-moddasida “har kim bilim olish huquqiga ega” ekanligi 40-moddasida esa “har kim malaklali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.” Yoki 37- moddada “har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko`rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.”

Hozirgi vaqtida yurtimizda aholining oltmis foizidan ortig'ini tashkil etayotgan navqiron avlod uchun davlat tomonidan keng qamrovli tadbirdilar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan 1991-yil 20-noyabrdagi “yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish” to`g'risidagi qonun va 2016- yil 14-sentyabrdagi ushbu qonunning yangi taxrirda e`lon qilinishi. Shuningdek yoshlar masalasida prezident Sh. M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan qator qaror va farmonlar buning yaqqol ifodasidir. Yosh avlodning sog'lom bo'lib o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llabquvvatlashga qaratilgan 5 ta muhim tashabbusni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yigit-qizlarimizning biznes loyihalari uchun “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida 719 mlrd. so'mlik 4 633 ta biznes loyiha amalga oshirilgan. Hududlarda 125 ta “Yoshlar mehnat guzari”, 19 ta “Yosh tadbirdorlar” kovorking markazi, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashib, alohida namuna ko`rsatayotgan yosh oilalarga 1 731 ta “Yoshlar uyulari” qurilib, foydalanishga topshirildi. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari”,

“Ijod maktablari” deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlар ratifikatsiya qilingan.

Ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda.

Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keyingi uch yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli

universitetlari filiallari ochildi. Bu dargohlarda ta'lim-tarbiya olgan yoshlar mamlakatimizning kuch-qudrati, dunyodagi mavqeini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Konstitutsiyamiz yoshlar huquqlari ta'minlanishining asosiy kafolati bo'lmoqda.

Birinchidan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limning oliv qadriyati sifatida shaxs e'tirof etiladi. Mazkur qadriyat Milliy dasturning uzlusiz ta'lim, uning insonparvarlik va ijtimoiylashishga yo'nalishi ko'rsatmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Ikkinchidan, pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish layoqatlarini shakllantiradi. Bu jarayon bizning fikrimizcha, yangi ta'limiy qadriyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi...".

Mazkur hujjat talablarini amalga oshirish esa ta 'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ya'ni xalq ta 'limi taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Bu vazifalaming hal etilishi jahon ilmiy jam g'armasidagi juda katta hajmlı axborot fondidan nimani ajratib olish, qancha va qanday o'qitish masalalarining yechimi bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu kesimda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan aloqador zamonaviy muammolar oydinlashadi.

Qolaversa, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq davom ettirishni davr taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim amaliyotida kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq ayrim masalalaming o'z aksini yaxshi topmaganligi ham tegishli o'qitish metodikalarining takomillashuvini dolzarb masalaga aylantirib qo'yemoqda. Hozirgi paytda, aksariyat metodist va pedagog-olimlar pedagogik texnologiyalar o'quvchi yoki talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlnangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qarashmoqda. Lekin bunday fikrlarni obyektiv haqiqat o'rnila qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor qilishi ham mumkin, Shuning uchun, zamonaviy pedagogik texnologiyalami o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi.

Agar shu nuqtai nazaridan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya (AKT) texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi boim ish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shu sababli pedagogik jarayonlarning kun tartibidagi aksariyat dolzarb muammolarining ijobiy yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamin kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda dasturlar va m a'ruza matnlarini elektron disketlarga ko'chirish, ular bilan har bir talabani ta'minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta 'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Demak, bugungi kunda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish ta'lif-tarbiya tizimida dolzarb vazifa sanaladi.

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan birinchisi – insonning ruhan poklanishi va qalban ulg'ayishidir. Bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar bilan birga, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, o'zini dunyoning haqiqiy egasidek his qiladigan «nafsnинг quli va o'tkinchi hoyu havas egalari»ning borligi tabiiy bir holdir.

Odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-etiqdodini butun qilish ma'naviyatning yana bir muhim xususiyatidir.

Tarbiva nazarivasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rghanadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabilarning ma'lumotlaridan foydalanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiyl asoslari, ta'lif nazariyasi hamda xalq ta'lifi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo falokat masalasidur".

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti A.Karimovning qator asar va nutqlari, chunonchi, "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli

asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya — shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri —o'quvchilik yillarda uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifyi ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya jarayonining natijasi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyuştirish va rahbarlik, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi.

Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish mumkin.

Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;
- b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;
- c) umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat,adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o'quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
- e) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;
- c) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;
- g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat — O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat.

Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Tarbiva maqsadining aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonumi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalariga ko‘ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi — erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

O‘quvchilarga nisbatan ta’lim muassasasining ta’sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta’til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e’tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Demak, ta’lim muassasasida bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan xoli vaqtida ular 0‘qituvchi yoki tarbiyachining ta’siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

Ayni vaqtida, respublikada, o‘quvchilarning ta’lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘srimcha ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo‘srimcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillami mukammal o‘zlashtirishlari, texnik va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari mumkin. Qo‘srimcha ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchravshuvlar, ko‘rgazmalar, ko‘riklar, suhbatlar o‘quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo‘lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzuniyatlari asosida belgilanadi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobjiy hal etish imkonini beradi.

REFERENCES

1. O`zbekiston respublikasi konstitutsiyasi Toshkent O`zbekiston 2019.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati Toshkent O`zbekiston 2016.
3. I. A karimov “yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” Toshkent Ma`naviyat 2008.
4. Sh. M. Mirziyoyev “qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`mirlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent O`zbekiston 2016.
5. O. T. Husanov konstitutsiyaviy huquq Toshkent adolat 2013.
6. Dilbar Mamadjanova,Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O`zbekiston XDP fraksiyasi a`zosi
7. Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” - T.: 2009.
8. N.A. Shermuhamedova. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.” Darslik. -T.: 2014
9. Aziza T. TARIXIY ASARLANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI: “YULDUZLI TUNLAR” ASARINING BOSH G'OYASI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 42-46.
10. Aziza T., Zakir A. The Role of Animated Films Based on the Works of Alisher Navoi in Shaping Children's Worldview //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 6. – C. 100-103.
11. Tleumuratova A. J. QORAQALPOG'ISTONDA TEATR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR. – 2024.
12. Tleumuratova A. J. FORMATION AND SPECIFIC FEATURES OF THEATER ART IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 408-411.
13. Tleumuratova A. JAHON ANIMATSIYA SAN'ATIDA TARIXIY MAVZU, OBRAZLAR TALQINI VA O'ZBEK ANIMATSIYA SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2023. – Т. 61. – №. 3. – С. 221-223.
14. Tleumuratova A. HISTORICAL THEME IN WORLD ANIMATION ART, INTERPRETATION OF IMAGES AND ITS ROLE IN UZBEK ANIMATION ART //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1105-1111.
15. Хожамуратов К. Б. МАХОБАТЛИ РАНГТАСВИР АСАРЛАРИНИНГ МАЊНАВИЙАҲАМИЯТИ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 2 (83). – С. 31-33.
16. Bazarbaevich K. K. THE SPIRITUALITY OF MAHOBATLI PAINTING WORKS IMPORTANCE //Archive of Conferences. – 2021. – C. 224-227.
17. Xojamuratov Q. B. ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS IN SCHOOLS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 333-336.
18. Bazarbaevich X. K. TASVIRIY SAN 'AT DARSLARIDA TALABALARNI MUSTAQIL TA 'LIM OLISH FAOLIYATIGA YO 'NALTIRISH METODLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 526-529.
19. Xojamuratov Q. B. ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS IN SCHOOLS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 333-336.

20. Zakir I. A. M. A. THE IMPORTANCE OF OUR NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF YOUTH //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 61-63.
21. Muratbaevich I. A., Zakir A. YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING AHAMIYATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 58-60.
22. Абатов Ж. О. ТАРИХНИ БИЛИШ ОРКАЛИ ТАСВИРИЙ САНЬЯТ НАМУНАЛАРИНИ ТУШУНИШГА ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ. – 2023.
23. Абатов Ж. О. ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАСВИРИЙ САНЬЯТ ДАРСЛАРИНИ ЎҚИТИШ. – 2023.
24. Orinbaevich A. J. An Integrative Approach to Teaching Students to Understand Fine Art Samples //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – Т. 24. – С. 49-53.
25. Yusupov A. NATURAL HARDENING OF CERAMIC MATERIALS AND THEIR TYPES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 151-156.